



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№6(6)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 248 sahifa,  
22-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
<b>Madaminova Gulzira Gulamkadirovna</b>	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni .....	14
<b>Arolov Davronjon Davlataliyevich</b>	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish .....	19
<b>Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi</b>	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
<b>Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi</b>	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	26
<b>Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi</b>	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
<b>Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna</b>	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
<b>Hojiyeva Nasiba Bahodirovna</b>	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
<b>Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi</b>	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati .....	43
<b>Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li</b>	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
<b>Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi</b>	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari .....	54
<b>Nusratova Mexriniso Baxshilloevna</b>	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
<b>Pulatova Dilfuza Azamkulovna</b>	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
<b>Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li</b>	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi .....	70
<b>Qurbonova Sevara Suyunovna</b>	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari .....	74
<b>Raxmatov Oxunjon Soibjonovich</b>	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
<b>Saidova Feruza Akramovna</b>	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
<b>Sidiqova Yulduz Sobirovna</b>	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
<b>Toxirova Dilshoda Inom qizi</b>	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash .....	92
<b>Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi</b>	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
<b>Xaydarova Go‘zalxon</b>	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari .....	105
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
<i>Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna</i>	
O'quvchilarda modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadigan faoliyat usullari .....	114
<i>Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich</i>	
Dizartriya shakllarining klinik-patogenetik tahlili va differensial diagnostikasi .....	120
<i>Axmedova V. T.</i>	
Boshlang'ich sinflarda fanlararo yondashuvga asoslangan integrativ topshiriqlar ishlab chiqishning uslubiy asoslari.....	127
<i>Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna</i>	
Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik determinantlari.....	132
<i>Elov Ziyodullo Sattorovich</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalar o'quv natijalarini baholashning pedagogik modeli.....	138
<i>Ernazarov Mirzohid Yo'ldosh o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi .....	145
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv tilshunoslikni joriy etish masalalar .....	150
<i>Mamatova Gulshan Amankulovna</i>	
Doston musiqiy merosini o'rganishni uslubiy takomillashtirish mazmuni.....	153
<i>Qo'shayev Ilhom Axtamovich, Nasirova Sevinch Ismatovna</i>	
"Elektr yoritish" fanida mustaqil ta'limning zamonaviy shakllari.....	157
<i>Nasretdinova Feruza Nabiyeвна</i>	
Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish .....	162
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Kuchkorova Robiya Shuxrat qizi</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	167
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
A Methodological Model for Developing Pedagogical Reflection in Pre-Service EFL Teachers.....	172
<i>Rahimberdiyeva Maftuna Rakhimberdi kizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzining kasbiy kompetentlikka ta'siri .....	177
<i>Raximova Saboxat Qaxramon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalar va faol ta'lim metodlarining samaradorligi .....	182
<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida interfaol usullarning mazmuni, turlari va funksional ahamiyati.....	190
<i>Safarova Soliha Ilhomovna</i>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 196	
<i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i>	
Musiqqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	200
<i>Saparov Raxim Muratbayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida.....	204
<i>Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Energetika fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik afzalliklari.....	208
<i>Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich</i>	
Методическая модель контекстуального обучения в формировании лингвокультурной компетенции при обучении русскому языку в национальных группах .....	213
<i>Рустамова Ферузaxon Махмуджановна</i>	

Integrating Artificial Intelligence into EFL Academic Writing Instruction: Opportunities, Challenges, and Pedagogical Implications.....	218
<a href="#">Allamurodov Elyor Tursun ugli</a>	
Sahna nutqida adabiy tur va janrlarning metodik talqini.....	223
<a href="#">Dilrabo Jumanova</a>	
Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim ekotizimi: imkoniyatlar va xavflar .....	227
<a href="#">Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li</a>	
Z avlod bilan ishlashda ta'lim va tarbiyaga oid zamonaviy tendensiyalar .....	232
<a href="#">Ravshanov Sanjar Tolibjonovich</a>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati...	235
<a href="#">Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</a>	
Tarixiy-ilmiy materiallar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik tafakkurini rivojlantirish metodikasi.....	239
<a href="#">Toshpulatova Mamura Ismailovna, Mannonova Dilafro'z Ravshan qizi</a>	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va muvofiqlashtirish ...	244
<a href="#">Xakimov Abdug'ulom Soyibjonovich</a>	

# MUSIQA TA'LIMIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Saparov Raxim Muratbayevich

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti  
Musiqiy ta'lim kafedrasini mudiri

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada musiqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning nazariy-pedagogik asoslari hamda didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. Interfaol metodlarning o'quvchilarning musiqiy idroki, estetik tafakkuri, ijodiy qobiliyati va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, musiqa darslarida "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "Bumerang" kabi metodlardan foydalanishning afzalliklari ilmiy jihatdan asoslangan.

**Kalit so'zlar:** musiqa ta'limi, interfaol metodlar, didaktik imkoniyatlar, musiqiy idrok, estetik tarbiya, ijodiy tafakkur, musiqiy kompetensiya, ta'lim samaradorligi, hamkorlik pedagogikasi, innovatsion ta'lim texnologiyalari.

**Abstract:** This article analyzes the theoretical and pedagogical foundations and didactic possibilities of using interactive methods in music education. The role of interactive methods in the development of students' musical perception, aesthetic thinking, creative abilities, and communicative competencies is highlighted. Also, the advantages of using such methods as "Brainstorming", "Cluster", "Insert", and "Boomerang" in music lessons are scientifically substantiated.

**Key words:** music education, interactive methods, didactic opportunities, musical perception, aesthetic education, creative thinking, musical competence, educational effectiveness, collaborative pedagogy, innovative educational technologies.

**Аннотация:** В данной статье анализируются теоретические и педагогические основы, а также дидактические возможности использования интерактивных методов в музыкальном образовании. Подчеркивается роль интерактивных методов в развитии у учащихся музыкального восприятия, эстетического мышления, творческих способностей и коммуникативных компетенций. Также научно обосновываются преимущества использования таких методов, как "Мозговой штурм", "Кластер", "Вставка", "Бумеранг", на уроках музыки.

**Ключевые слова:** музыкальное образование, интерактивные методы, дидактические возможности, музыкальное восприятие, эстетическое образование, творческое мышление, музыкальная компетентность, эффективность образования, педагогика сотрудничества, инновационные образовательные технологии.

## KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari ta'lim tizimi oldiga shaxsning har tomonlama rivojlantirishini ta'minlash, uning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish, muloqotga kirishish va hayotiy muammolarni samarali hal etish kompetensiyalarini shakllantirish kabi muhim vazifalarni qo'yimoqda. Shu nuqtayi nazardan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan fanlar mazmunini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, musiqa ta'limi o'quvchilarning estetik didini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, musiqiy madaniyatini shakllantirish hamda ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda muhim pedagogik vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Musiqa ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarda musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilangina cheklanib qolmay, balki ularda musiqani ongli idrok etish, badiiy-estetik tafakkurni rivojlantirish, ijodiy faoliyatga qiziqishni kuchaytirish hamda milliy musiqiy merosga nisbatan qadriyatli munosabatni tarkib toptirishdan iboratdir. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim hollarda musiqa darslari an'anaviy usullar asosida tashkil etilishi natijasida o'quvchilarning darsdagi faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy ishtiroki yetarli darajada ta'minlanmayapti. Bu esa ta'lim jarayoniga interfaol metodlarni keng joriy etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.



Interfaol metodlar ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularni hamkorlikda ishlashga, mustaqil izlanishga, o'z fikrini erkin bayon etishga va muammoli vaziyatlarni hal etishga yo'naltiruvchi samarali pedagogik vosita hisoblanadi <sup>[1]</sup>. Musiqa ta'limida ushbu metodlardan foydalanish o'quvchilarning musiqiy idroki, estetik tafakkuri, emotsional sezgirligi, kommunikativ ko'nikmalari va ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, "Aqliy hujum", "Klaster", "Bumerang", "Insert", "Keys-stadi", "Loyiha metodi", "Musiqlik muzozara" kabi interfaol metodlar musiqa darslarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Musiqa ta'limini takomillashtirish, o'quvchilarning musiqiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirish va ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan. Jumladan, J. Dyui, L. S. Vigotskiy, J. Piaje, B. Blum, K. Rodjers, D. B. Kabalevskiy, B. M. Teplov kabi olimlar ta'limda faoliyatga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan va hamkorlikka asoslangan yondashuvlarning nazariy asoslarini ishlab chiqqanlar <sup>[2]</sup>.

O'zbek pedagogikasida esa musiqa ta'limi va estetik tarbiya masalalari bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, musiqa ta'limida interfaol metodlarning didaktik imkoniyatlarini kompleks tarzda yoritish bugungi kunning dolzarb ilmiy-pedagogik muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda musiqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini o'rganish maqsadida ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, interfaol metodlarning ta'lim samaradorligiga ta'siri nazariy jihatdan tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Musiqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning musiqiy bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini faol, ongli hamda ijodiy tarzda shakllantirish bilan bevosita bog'liqdir <sup>[4]</sup>. Musiqa fani o'z mazmuniga ko'ra faqat nazariy bilim berishga emas, balki o'quvchilarda estetik did, musiqiy idrok, emotsional sezgirlik, ijodiy tafakkur, tinglash madaniyati, ijrochilik ko'nikmalari va milliy-madaniy qadriyatlarga ongli munosabatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli musiqa darslarida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchini passiv tinglovchidan faol ijodkor, kuzatuvchi, tahlilchi va baholovchi subyektga aylantiradi.

Interfaol metodlarning didaktik imkoniyatlari, avvalo, ta'lim jarayonida o'quvchi faolligini oshirishda namoyon bo'ladi. An'anaviy darslarda o'qituvchi asosiy axborot manbai sifatida ishtirok etsa, interfaol ta'limda o'quvchi bilimni o'zlashtirish jarayonining bevosita ishtirokchisiga aylanadi. Musiqa darslarida bu holat qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, ritmik mashqlar bajarish, guruhda ijodiy topshiriqlarni bajarish, asar mazmunini muhokama qilish, kuy xarakterini aniqlash, musiqiy obrazlarni tasvirlash va ijro sifatiga baho berish jarayonlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Natijada o'quvchilarda musiqiy bilimlar mexanik tarzda emas, balki faol idrok, amaliy harakat va shaxsiy kechinma orqali shakllanadi.

Didaktik nuqtayi nazardan interfaol metodlar musiqa ta'limining mazmunini boyitadi. Masalan, "Aqliy hujum" metodi yordamida o'quvchilar ma'lum bir musiqiy asar, qo'shiq yoki kuy haqidagi dastlabki tasavvurlarini erkin bildiradilar. Bu metod o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, musiqiy eshituv asosida xulosa chiqarishi va o'z munosabatini ifodalashiga xizmat qiladi. "Klaster" metodi esa musiqiy tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga yordam beradi. Masalan, "maqom", "xalq qo'shig'i", "ritm", "ohang", "musiqiy obraz", "ijro", "estetik tarbiya" kabi tushunchalar klaster shaklida tahlil qilinsa, o'quvchilar musiqa san'atining tarkibiy qismlarini yaxlit tizim sifatida anglaydilar.

"Insert" metodi musiqa darslarida o'quvchilarning tinglangan yoki o'rganilgan materialga nisbatan ongli munosabatini shakllantiradi. O'quvchi musiqa asari yoki nazariy ma'lumotni o'zlashtirish jarayonida bilgan, yangi o'rgangan, tushunmagan yoki qo'shimcha izoh talab qiladigan jihatlarni belgilaydi. Bu esa o'quvchilarda refleksiv fikrlashni rivojlantiradi. "Bumerang" metodi esa musiqiy bilimlarni mustahkamlash, o'quvchilar o'rtasida savol-javob, qayta aloqa va fikr almashish jarayonini kuchaytiradi. Ayniqsa, musiqa tarixi, kompozitorlar ijodi, milliy musiqa merosi, cholg'u asboblari va janrlar haqida bilimlarni mustahkamlashda ushbu metod samarali hisoblanadi.

Musiqa ta'limida interfaol metodlarning muhim didaktik imkoniyatlaridan biri o'quvchilarning musiqiy idrokini rivojlantirishidir. Musiqiy idrok - bu musiqani eshittirish, anglash, his qilish, obrazli tasavvur qilish va baholash jarayonidir <sup>[5]</sup>. Interfaol metodlar o'quvchilarni musiqiy asarni yuzaki tinglashdan chuqur tahliliy idrok etishga olib boradi. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarga biror kuy yoki qo'shiqni tinglatib, uning kayfiyati, tempi, ritmi, xarakteri, obrazlari, mazmuni va tarbiyaviy g'oyasi haqida fikr bildirishni topshiradi. Bu jarayonda o'quvchi musiqa asarini faqat eshitmaydi, balki uning badiiy-estetik mohiyatini tushunishga harakat qiladi <sup>[4]</sup>.

Interfaol metodlar o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda ham katta didaktik imkoniyatga ega. Musiqa ta'limida ijodiy tafakkur o'quvchining kuyga mos harakat topishi, qo'shiq mazmunini tasvir orqali ifodalashi, musiqiy obrazga tavsif berishi, kichik sahna ko'rinishi tayyorlashi, ritmik kompozitsiya yaratishi yoki musiqiy asar yuzasidan mustaqil fikr bildirishi orqali rivojlanadi. Masalan, "Musiqa obrazni top", "Kuyga mos rang tanla", "Qo'shiq mazmunini sahnalashtir", "Ritmni davom ettir", "Ohangga mos so'z top" kabi interfaol topshiriqlar o'quvchilarning tasavvurini, obrazli tafakkurini va ijodiy faolligini kuchaytiradi.

Musiqa darslarida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Guruhi ishlash, juftlikda fikr almashish, musiqiy bahs-munozara, jamoaviy ijro, ansambl bo'lib kuylash va taqdimot qilish jarayonlari o'quvchilarni o'z fikrini aniq ifodalashga, boshqalarni tinglashga, hamkorlikda qaror qabul qilishga va ijodiy jarayonda faol ishtirok etishga o'rgatadi. Bu jihat, ayniqsa, musiqa ta'limining tarbiyaviy imkoniyatlarini kengaytiradi. Chunki musiqa darslari orqali o'quvchilarda nafaqat musiqiy bilim, balki muloqot madaniyati, jamoada ishlash, o'zaro hurmat va estetik munosabat ham shakllanadi <sup>[6]</sup>.

Interfaol metodlarning yana bir muhim didaktik imkoniyati o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishidir. Musiqa ta'limida mustaqil ta'lim o'quvchining qo'shimcha musiqa namunalarini tinglashi, kompozitorlar hayoti va ijodini o'rganishi, milliy cholg'u asboblari haqida ma'lumot to'plashi, qo'shiq matni va mazmunini tahlil qilishi, ijro ustida mustaqil ishlashi bilan bog'liq. Interfaol metodlar bu jarayonni rag'batlantiradi. Masalan, "Loyiha metodi" orqali o'quvchilar "O'zbek xalq cholg'ulari", "Maqom san'ati", "Bolalar qo'shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati", "Buyuk kompozitorlar ijodi" kabi mavzularda mustaqil izlanish olib borishlari mumkin.

Musiqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanish kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Kompetensiyaviy yondashuv o'quvchining faqat bilimga ega bo'lishini emas, balki ushbu bilimni amaliy faoliyatda qo'llay olishini nazarda tutadi. Musiqa darslarida bu musiqiy savodxonlik, tinglash madaniyati, vokal-xor ijrochiligi, ritmik sezgi, ijodiy ifoda, estetik baholash va milliy musiqiy merosni anglash kompetensiyalarida namoyon bo'ladi. Interfaol metodlar o'quvchilarga ushbu kompetensiyalarni amaliy faoliyat orqali egallash imkonini beradi.

Ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan interfaol metodlar shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, konstruktivistik yondashuv, faoliyat nazariyasi va hamkorlik pedagogikasi bilan uzviy bog'liqdir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda har bir o'quvchining qobiliyati, qiziqishi, musiqiy imkoniyati va individual rivojlanish darajasi hisobga olinadi. Konstruktivistik yondashuvda o'quvchi bilimni tayyor shaklda emas, balki o'z tajribasi, tahlili va izlanishi orqali egallaydi. Faoliyat nazariyasida esa bilim amaliy harakat jarayonida shakllanadi. Hamkorlik pedagogikasi esa o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi subyekt-subyekt munosabatiga asoslanadi. Musiqa ta'limida interfaol metodlar aynan shu ilmiy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Musiqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanish milliy musiqiy merosni o'rgatishda ham katta didaktik imkoniyatlarga ega. O'zbek xalq qo'shiqlari, maqom namunalari, lapar, yalla, alla, terma, dostonchilik an'analari va milliy cholg'u ijrochiligi o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, madaniy merosga hurmat, estetik did va ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlar orqali ushbu materiallar oddiy ma'lumot sifatida emas, balki tahlil, ijro, muhokama, taqqoslash va ijodiy ifoda orqali o'zlashtiriladi. Masalan, o'quvchilar xalq qo'shig'ining mazmunini tahlil qiladilar, undagi tarbiyaviy g'oyalarni aniqlaydilar, kuy xarakterini baholaydilar va uni zamonaviy hayot bilan bog'laydilar.

Interfaol metodlarning baholash jarayonidagi imkoniyatlari ham alohida ahamiyatga ega. Musiqa darslarida baholash faqat to'g'ri yoki noto'g'ri javobni aniqlash bilan cheklanmasligi kerak. Unda o'quvchining musiqiy idroki, ijrodagi faolligi, ijodiy yondashuvi, guruhdagi ishtiroki, estetik baholashi va mustaqil fikri ham hisobga olinishi lozim. Interfaol metodlar jarayonida o'z-o'zini baholash, o'zaro baholash, refleksiya, ijodiy topshiriq natijalarini tahlil qilish kabi baholash shakllaridan foydalanish mumkin. Bu esa o'quvchida o'z faoliyatiga tanqidiy yondashish, ijro sifatini tahlil qilish va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Musiqa darslarida interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi o'qituvchining metodik mahoratiga ham bog'liq. O'qituvchi dars mavzusi, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, musiqiy tayyorgarlik darajasi, darsning maqsadi va o'quv materiali mazmunidan kelib chiqib metod tanlashi lozim. Har bir interfaol metod maqsadga muvofiq, didaktik jihatdan asoslangan va musiqiy faoliyat bilan uyg'un holda qo'llangandagina kutilgan natijani beradi. Masalan, boshlang'ich sinflarda musiqiy o'yinlar, ritmik mashqlar, tasviriy ifoda va harakatli topshiriqlar samarali bo'lsa, yuqori sinflarda bahs-munozara, loyiha, keys-stadi, taqdimot va tahliliy metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, interfaol metodlar musiqa ta'limida integrativ yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi. Musiqa fani adabiyot, tarix, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, ona tili va ma'naviyat asoslari bilan bevosita bog'liq. Masalan, qo'shiq matni adabiy tahlil qilinadi, kuy tarixi tarixiy voqealar bilan bog'lanadi, musiqiy obraz tasviriy san'at orqali ifodalanadi, ritmik harakatlar jismoniy faollik bilan uyg'unlashadi. Interfaol metodlar ana shu fanlararo bog'liqlikni kuchaytirib, o'quvchilarning bilimlarini yaxlit tizimda shakllantiradi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Musiqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari keng va ko'p qirrali hisoblanadi. Ular o'quvchilarning musiqiy idroki, ijodiy tafakkuri, estetik didi, ijrochilik malakasi, kommunikativ ko'nikmalari, mustaqil ta'lim olish qobiliyati va milliy-madaniy qadriyatlarga munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlar musiqa darslarini jonli, mazmunli, ijodiy va samarali tashkil etish imkonini beradi. Shu bois musiqa ta'limida interfaol metodlardan tizimli foydalanish nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning ma'naviy-estetik kamolotini ta'minlovchi muhim didaktik omil sifatida namoyon bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. - Toshkent: Iste'dod, 2018. - 180 b.
2. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - Toshkent: Fan, 2017. - 240 b.
3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - Toshkent: TDPU, 2016. - 192 b.
4. Kabalevskiy D.B. Musiqa va estetik tarbiya. - Moskva: Prosveshcheniye, 2015. - 192 b.
5. Teplov B.M. Musiqiy qobiliyatlar psixologiyasi. - Moskva: Nauka, 2018. - 335 b.
6. Abdurashidov A. Musiqa o'qitish metodikasi. - Toshkent: Tafakkur, 2020. - 220 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(6)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.